



**QASHQADARYO VILOYATI  
G‘UZOR TUMANI HOKIMINING  
Q A R O R I**

O‘zbekiston Respublikasi, Qashqadaryo viloyati, G‘uzor shahri, Mustaqillik ko‘chasi, 14-uy. Tel: 75.552-13-60

---

2021 - yil 14 - oktabr

263-4-56-Q/21

G‘uzor tuman hokimligi

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-avgustdagi “Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni davlat tomonidan qo‘llab- quvvatlashning yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5216-sonli, hamda shu mazmundagi Qashqadaryo viloyati hokimining 2021-yil 21-avgustdagi 441-4-0-Q/21-sonli qarorlari haqida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-avgustdagi “Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5216-sonli, hamda shu mazmundagi Qashqadaryo viloyati hokimining 2021-yil 21-avgustdagi 441-4-0-Q/21-sonli qarorlarining bajarilishini ta'minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 25-moddalariga asosan

**Q A R O R Q I L A M A N:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-avgustdagi “Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni davlat tomonidan qo‘llab- quvvatlashning yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5216-sonli, hamda shu mazmundagi Qashqadaryo viloyat hokimining 2021-yil 21-avgustdagi 441-4-0-Q/21-sonli qarorlari ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. 2021-yil 15-avgustdan boshlab yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni **uy-joy bilan** ta'minlashning tartibi o‘rnatilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin va ijroga yo‘naltirilsin.

3. Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni uy-

joylar bilan ta'minlashni tashkil etish, uy-joylarning adolatli taqsimlanishi va o'z vaqtida ajratilishini nazorat qilish bo'yicha tuman komissiyasining (keyingi o'rinlarda–tuman komissiyasi) tarkibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman komissiyasi (M.Panjiyev) tumandagi ma'sullar bilan birgalikda 2021-yil 1-dekabrga qadar mazkur qaror doirasida uy-joyga muhtoj yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni uy-joy bilan ta'minlash choralari ko'rsin.

5. Tuman Xalq ta'limi bo'limi bilan birgalikda: o'n kun muddatda yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga uy-joylarni xarid qilish bilan bog'liq xarajatlar uchun mablag' ajratish to'g'risidagi takliflarning xalq deputatlari tuman Kengashlariga kiritilishini;

- yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga ajratilgan uy-joylar yashash uchun barcha zarur sharoitlarga ega bo'lgan (ta'mirlangan va jihozlangan) holda topshirilishini ta'minlasin.

6. Tuman prokuraturasi (B.Erkaev) yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni uy-joy bilan ta'minlash uchun ajratiladigan mablag'larning shakllanishi va maqsadli sarflanishi ustidan nazorat o'rnatsin.

7. Xalq ta'limi bo'limi (R.Eshqobilova) va tuman Milliy gvardiya bo'limi (B.Berdiev):

- bir oy muddatda yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni uy-joy bilan ta'minlashning "onlayn-navbat" tizimini amaliyotga joriy etsin;

- uy-joyga muhtoj yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar ro'yhatining "onlayn-navbat" tizimiga kiritilishini va doimiy yangilanishini ta'minlasin.

8. Mazkur qaror ijrosini samarali tashkil qilishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib tuman Milliy gvardiya bo'limi boshlig'i B.Berdiev, Xalq ta'limi bo'limi mudiri R.Eshqobilova va tumandagi ma'sul tashkilotlar belgilansin.

9. Qaror ijrosini muhokama qilib borish, ijro uchun mas'ul tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish tuman hokimining o'rinbosari M.Panjiyev zimmasiga yuklatilsin.

Туман ҳокими



Б.Суюнов

Гузор туман ҳокимининг  
2021 йил 14 октябрдаги  
263-4-56-Q/21-сон қарорига  
1-илова

**Yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni uy-joy bilan ta'minlashni tashkil etish, uy-joylarning adolatli taqsimlanishi va o'z vaqtida ajratilishini nazorat qilish bo'yicha tuman komissiyasi**

**TARKIBI**

- |                    |   |
|--------------------|---|
| 1. B.Suyunov       | Tuman hokimi, <b>komissiya raisi</b>  |
| 2. B.Erkayev       | Tuman prokurori, <b>komissiya raisi o'rinbosari</b>                         |
| 3. B.Berdiyev      | Tuman Milliy gvardiya bo'limi boshlig'i, <b>komissiya raisi o'rinbosari</b> |
| 4. Z.Zokirov       | Tuman hokimining o'rinbosari  |
| 5. M.Panjiyev      | Tuman hokimining o'rinbosari  |
| 6. B.Ne'matov      | Tuman hokimining o'rinbosari  |
| 7. Z.Tursunov      | Tuman Ichki ishlar bo'limi boshlig'i  |
| 8. R.Eshqobilova   | Tuman Xalq ta'limi bo'limi mudiri   |
| 9. E.Karimov       | Tumandagi 1-son kasb-hunar maktabi direktori                                |
| 10. D.Qo'chqorov   | Tumandagi 2-son kasb-hunar maktabi direktori                                |
| 11. Sh.Xurramov    | Tuman Moliya bo'limi mudiri   |
| 12. Sh.Toshpulatov | Tuman Bandlikka ko'maklashish markazi direktori                             |
| 13. H.Urunov       | Yoshlar ishlari agentligi tuman bo'limi rahbari                             |
| 14. E.Niyozov      | Komissiya kotibi  |